

RAUF PARFI IJODIDA TUPROQ OBRAZI

Mahliyo Raximboyeva

*Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti filologiya va tillarni o'qitish:
o'zbek tili ta'lim yo'nalishi talabasi,
mahliyoraximboyeva73@gmail.com*

Rauf Parfi-mustaqillik davri adabiyotining yetuk namoyondasi. U tabiatan tirishqoq va so'zga oshno, qalbi uyg'oq ijodkor. Ijodkor lirikasida timsollar o'z va ko'chma ma'nolarda shoirona ruhda ifodalangan. She'riy nutqda timsollarning o'рни benihoya katta. Chunki ijodkor o'zining badiiy niyatini obrazlar orqali ochib beradi. Taniqli adabiyotshunos Dilmurod Quronov badiiy obraz haqida shunday yozadi: "Badiiy obraz –adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi"¹⁰. Rauf Parfi o'zining badiiyatini ko'pincha tabiat tasviri bilan bog'liq bo'lgan timsollar orqali ochib bergan.

Rauf Parfi lirikasini sinchiklab kuzatar ekanmiz, ko'pincha tabiat tasvirining shoirona manzaralarini uchratamiz. Jumladan, oy, quyosh, yomg'ir, shamol va bulut shu kabi va boshqa timsollar shoirimizning badiiy hamrohlaridir. Biz bu safar ijodkorimiz lirikasidagi tuproq obrazini tahlilga tortishga jazm qildik.

Tuproq obrazi mumtoz adabiyotda ham an'anaviy obrazlardan biri bo'lib, haq va haqiqat, hayot, umr kabi ma'nolarda keladi. Zamonaviy adabiyotimizda ham xuddi shu ma'nolarni ifoda etadi. Xususan, Rauf Parfi tuproq obrazida o'zining va jamiyatning ahvolini, falsafiy fikrlarini, badiiy-estetik qarashlarini she'riy satrlarida aks ettirgan.

Tuproq-insonlar makoni, ayriliq girdobi. Ijodkor yoshlik paytida otasidan ajraladi. Ijodkorga otasi doimiy yo'ldosh va hamroh edi. Shoirning otasi haqida Vafo Fayzulloh shunday yozadi: "Ma'lumotlarga ko'ra, Parfi Muhammad Aminning ham yangicha, ham eskicha savodi bo'lib, fors-tojik, usmonli turkcha, rus tilini yaxshi bilgan. Chor bosqinidan keyin bir muddat turli mahkamalarda filmochlik-tarjimonlik qilgan. Taqdir taqozosi bilan o'tgan asrning 30-yillarida oilasini olib, Farg'onadan Toshkent viloyati Yangiyo'l tumaniga ko'chib keladi. Hamma hujjatlarda o'zini "savodsiz" deb yozdiradi. Urushdan keyin umrining oxirigacha jamoa xo'jaligida bog'bonlik qiladi"¹¹. Bizning aziz mehribonlarimiz, otalarimiz, onalarimizni shu tuproq o'z domiga

¹⁰ Quranov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: Akademnashr, 2013.

¹¹ Vafo Fayzulloh. Rauf Parfining "Turkiston ruhi" nomli kitobiga yozgan so'zboshidan, Toshkent, 2013.-B 8.

tortib oladi. Tuproq obrazi so‘zsiz va jim bo‘lishiga qaramay, bag‘rini insonlar bilan, qalblar to‘ldiradi:

Biz endi ko‘rishga olmaymiz yorug‘ dunyoda.
Bilamanki, sen-tuproqda,
Bilamanki, sen-
Qalbimning bag‘rida ochilgan yaproqda...¹²

Tuproq va insonlar o‘rtasida azal-azaldan o‘zaro zidlik bor. Ya‘ni tuproq timsoli insonlarning jonini oluvchi obraz sifatida qaraladi. Rauf Parfining mazkur satrlarida ham o‘sha ruhiyat va ma‘no-mazmun bor. Shoir dunyoning yuragi torligini shoirona misralarda aks ettirar ekan, bu jummalari orqali o‘zining ichki his-tuyg‘ularini, qolaversa, zamon hol-ahvolini bayon qilgan:

Kishanband qilinlar qo‘llarim go‘yo,
Tuproqqa qorisha boshlaydi tanim.
Shu qadar yuragi tormidir-dunyo¹³.

Tuproq-ona zaminning yuragi, qoni va jon-u jahoni. Har bir xalqning tuprog‘i va havosi aholisi uchun benihoya qadrlil va azizdir. Shuning uchun yurt va Vatan haqida gap ketganda, shubhasiz, tuproq obrazi faollik qiladi. Ijodkor Gurjistonni alqab turib, baribir, ona yurtining tuprog‘ini sevishini ta‘kidlaydi:

Qutlug‘ tuprog‘ingga qadamim bosdim,
Qutlug‘ tuprog‘ingni kuylarman qonib.
Yo‘q, men Gurjistonni seva olmasdim,
Bag‘rimda turmasa O‘zbekistonim¹⁴.

Kurash... Shoirimiz yashagan davrning o‘chmas xotiralaridir. Ba‘zi insonlar jang-u jadallarda qatnashib jaraohatlansa, ba‘zilar esa ma‘naviy zararlandilar. Qora kuchlarning tazyiqi va haqoratlarni nafaqat oddiy aholini, balki millatning ziyolini qatlamini ham yemira boshladi. Rauf Parfining ijodi va faoliyatida ham bu jarayonlar yuz berganligi sababli lirikasida uchratamiz. Shu o‘rinda lirik qahramon o‘zini tuproqdan ekanligini va oxir-oqibat tuproqqa aylanishi ifoda etadi. Bu esa o‘z navbatida hamma uchun o‘lim muqarrar ekanligiga badiiy ishora:

“...Kurash nechun axir?.. Men yosh o‘larman,
Necha imkon bordir sevdim-ku, tokim,
Tuproqdan edim men, tuproq bo‘larman.
Dunyoni tutajak mening-da hokim...”¹⁵

¹² Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 36.

¹³ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B124.

¹⁴ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 150.

¹⁵ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 171.

Rauf Parfi butun hayoti davomida vijdonanan faoliyat olib borgan. Bu haqda ko'plab muloqot va uchrashuvlarda, badiiy-publististik maqolalarda aytib o'tgan. Shu jumladan, "Bani odam uchun noyob, beqiyos..." deb boshlanuvchi bandida ham vijdon timsoliga nisbatan "noyob", "beqiyos", "mukarram tuyg'u" singari badiiy sifatlashlarini beradi. Uchinchi va to'rtinchi satrlarda nekbinlik ohangi bor. Ya'ni "qamchilangan vijdon" va uning tuproqqa bexosdan otilishi jumalari satrlarga tushkunlik va xo'ralanganlik kayfiyatini baxsh etgan. Bu holat yuqorida aytib o'tganimizdek, mazkur baytda ham mantiqiy davom qilgan. Shoirimiz bu safar ham tuproq timsolidan o'z hissiyotlari va kechinmalarini aks ettirda unumli foydalangan:

Bani odam uchun noyob, beqiyos,
O, vijdon shevasi, mukarram tuyg'u.
Lekin men tuproqqa otdimmi bexos,-
Balki qamchilangan vijdonimdir ul?¹⁶

Ba`zan ijodkorlar umr va hayot haqida qalam tebratsa, biz, kitobxonlar ularning umri va hayoti yakuniga yetayotganmikan yoki tugayotganmikan deya turlicha tahlil qilamiz. Rauf Parfining mazkur satrlarida "Oyoqlarim mening tuproq ichinda..." jumlarini shoirona ruhda yozar ekan, lirik qahramonning umri tugab borayotganligini anglashimiz qiyin emas. Hayoti yakuniga yetayotgan insonlarning oyog'i tuproq bilan yaqin bo'lishini ijodkor o'zi orqali tasvirlagan:

Ko'klarga to'qinar so'ngak qo'llarim,
Oyoqlarim mening tuproq ichinda...¹⁷

Lirik qahramon shu darajada alamzada ekanligini "Nahot tepamizda yonmasdi, nahot?.." deya misralari orqali bilib olishimiz mumkin. Tuproqqa nisbatan "qontalash" va "ahgar" sifatlashlaridan foydalanadi. Bundan tashqari toshqotgan alamlar va muzlagan faryod misralarga yanada kuchliroq o'kinch va alamzadalik tusini bergan. Ushbu satrlarda tuproq timsoli ramziy ma`no kasb etgan. Bu obraz faqat ozgina tuproq ma`nosida emas, balki butun bir jamiyat, Vatan ma`nolarida kelgan. Demak, xulosa shuki, shoir yurtining, butun Turkistonning tang va nochor ahvolini, yashash tarzini badiiy fikrlari orqali yozgan:

Nahot tepamizda yonmasdi, nahot?
Nahotki bu tuproq qontalash, ahgar,
Toshqotgan alamlar, muzlagan faryod¹⁸

¹⁶ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 180.

¹⁷ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 247.

¹⁸ Parfi R. Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.-B 249.

Taniqli adabiyotshunos va nazariyotchi olim Ilhom G'aniyev Rauf Parfining "Chayon yo'lidir borar yo'llarim..." deya boshlanuvchi misralarini tahlilga tortar ekan, mazkur bandeda tuproq timsoli ham ishtirok qiladi: "Ona tilini validalik maqomiga ko'tarib o'zi (millat) uchun imdod so'ramoqda:

Chayonzor yo'lidir borar yo'llarim,
Tanim yonmoqdadir ishqsiz ochunda.
Ko'klarga to'qinar so'ngak qo'llarim
Oyoqlarim mening tuproq ichinda.

"Chayonzor yo'li" (metafora)-istibdod yo'li. Xavfli, erk, ozodlik yo'li xatarlarga, "chayonlarga" to'la; "Ishqsiz ochun" (metafora)-moddiyatga kun sayin aylanayotgan dunyo XX asr (XXI asr ham!); "Ko'klarga to'qinar"-iltijo qilar, samoga qo'l cho'zib; "so'ngak qo'llarim"-tilayverib, so'rayverib, ko'kka cho'zaverib suyakka aylanib qolgan qo'llar-chorasizlik. "To'qinar so'ngak qo'llarim" (jonlantirish, epitet, metafora). "Oyoqlarim mening tuproq ichinda"-istibdod botqog'i qumiga botib qolganman, oldga yurish, kurashish juda qiyin..."¹⁹

Xulosa qilganda, Rauf Parfi ona tabiat va zaminning muqaddas farzandi bo'lmish tuproq timsolini o'z lirikasida mohirona tasvirlaydi. Shoirimizning tabiat farzandi ekanligi yuqoridagi misralardan dalolat beradi. Rauf Parfi ijodida tuproq obrazi turli xil manzaralarda gavdalanadi: tuproq obrazi ijodkor nuqtayi nazari bilan turlicha talqin etiladi va bu obraz har safar o'zining yangidan yangi qirralari bilan she'rning poetik ruhiyati va badiiyatini ta'minlashga xizmat qilganligi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Parfi R.Turkiston ruhi.-T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
2. Vafo Fayzulloh. Rauf Parfining "Turkiston ruhi" nomli kitobiga yozgan so'zboshidan, Toshkent, 2013.-B 8.
- 3.G'aniyev I. Rauf Parfi O'zturk dunyosi.-T.: Muharrir nashriyoti, 2019.
4. Quranov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: Akademnashr, 2013.

¹⁹ G'aniyev I. Rauf Parfi O'zturk dunyosi.-T.: Muharrir nashriyoti, 2022.-B 548.